

---

## 15 oktyabr – “Xalqaro qishloq ayollari kuni” keng nishonlandi

Qo'shtepa tumanida sana munosabati bilan “Qumtepa Qamishtepa” MMTP hududidagi “Alijon Bobomurod” fermer xo'jaligida bayram tadbiri tashkillandi. Ushbu fermer xo'jaligi tumandagi eng ilg'orlardan bo'lib, paxta rejasini ham ortig'i bilan bajardi.

Tadbirda so'z olgan tuman hokimi A.Abdullayev terimchi paxtakorlarni va barcha fidoiy qishloq ayollarini bayram bilan samimiy tabrikladi.

Tadbir davomida sektor rahbarlari tomonidan opa-singillarimizga munosib mehnatlari samarasi sifatida bayram sovg'alari ulashildi.

Bayram dasturxoni atrofida dilrabo kuy va qo'shiqlar yangrab, sho'x raqslar esa ishtirokchilar qalbiga bayram kayfiyatini ulashdi.











2024-10-15 13:14:28